



## 2019 yil yanvar-iyul oylarida Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yil yanvar-iyul oylarida viloyatdagi korxonalar tomonidan 8576,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 109,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati - 9,7 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash-3,7 % ga, tog'-kon va ochiq konlarni ishlash-10,6 % ga o'sishi hisoblandi.

### Yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (2019 yil yanvar-iyul)



**Samarqand viloyatida o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi**



***Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash***

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 65,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 0,7 % ni tashkil etdi.



***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)***

2019 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8233,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,0 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,7 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali 27,6 % ni, o'rta-quyi texnologiyali - 11,8 % ni va quyi texnologiyali - 55,9 % ni tashkil etdi.



### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 230,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,7 % ni) tashkil etdi.



### **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 48,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.



### **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 4787,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 1,2 % ga o'sishini ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 55,8 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sish sur'ati



2018 yil yanvar-iyul oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 66,3 % dan 2019-yil yanvar-iyul oyida 61,2 % ga pasayishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari hamda pivo 4,4 % ni (2018-yil yanvar-iyul oylarida 3,5 %) tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi**


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3656,5 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 42,6 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning umumiy sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %**

**2018 yil yanvar-iyul**




**2019 yil yanvar-iyul**



■ Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
■ ViLOYATning boshqa korxonalari

**2019 yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)**




ViLOYATda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'pi Samarqand shahri (viLOYAT sanoat ishlab chiqarish hajmining 45,4 %), Jomboy (16,7 %), Urgut (8,3 %), Samarqand (8,3 %) va Tayloq (5,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4639,3 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 54,1 % ni tashkil etdi.

**2019 yilning yanvar-iyul oylarida hududlar boʻyicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %.**



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Nurobod tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Qoʻshrabot (100,0 %), Samarqand (99,7 %), Urgut (97,7 %), Oqdaryo (94,5 %) va Tayloq (90,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush, Kattaqoʻrgʻon shahri (27,3 %), Narpay (24,6 %) va Jomboy (18,5 %) tumanlarida kuzatildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish**
*(yirik korxonalar bo'yicha)*
**Qayta ishlash sanoati**

<i>Sanoat mahsulotlari nomi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2019-yil yanvar-iyul</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
Tarkibida ikkita ta'minlovchi element–azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	 ming tonna	17,95	110,5 ↑
Aroq	 ming l. 100% spirt	204,0	22,1 ↓
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	 ming l. 100% spirt	142,20	81,9 ↓
Uzum vinosi	 ming l.	482,9	85,6 ↓
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)	 ming l.	18897,0	90,2 ↓
Yumshoq bug'doy va spelta uni	 ming tn.	84,0	94,6 ↓

Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni (buxanka), og'irligi 600 g.		<i>tn.</i>	393,0	84,0 ↓
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)		<i>tn.</i>	6151,0	81,6 ↓
Paxta tolasi		<i>ming tn.</i>	18,7	43,0 ↓
Paxta chigiti		<i>ming tn.</i> <i>ming tn.</i>	30,8	56,6 ↓
Paxta tiviti (lint)		<i>tn.</i>	1612,0	57,0 ↓


**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi		<i>mln.kVt/s</i>	49,54	140,1 ↑
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)		<i>ming Gkal.</i>	42,2	102,4 ↑

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatda 6026 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1584 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 26,3 %) Samarqand shahriga, 818 tasi (13,8 %) Urgut tumaniga, 572 tasi (9,5 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.


**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik**  
(2019 yil 1 avgust holatiga)



2019 yil yanvar-iyul oylarida viloyatda 1365 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi va tashkil etilganlarning eng ko'pi Samarqand shahri (19,1 foiz), Urgut (10,3), Pastdarg'om (10,2 foiz), Samarqand (8,8 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik**

(2019 yil 1 avgust holatiga)



Sanoat statistikasi bo'limi

E.A.Qo'qonov

Tel: (66) 235-06-80